



“DAVOLASH ISHI” FAKULTETINING 2023 – 2030 YILLAR UCHUN STRATEGIK REJASI

O‘zbekiston va Markaziy Osiyodagi ta’lim faoliyatining 68 yilligini nishonlagan “Davolash ishi” fakulteti ortga qaramaydi va kelgusi 6 yilda Institut va O‘zbekistonning ta’lim sohasi rivojiga qanday hissa qo‘shishini aniqlab olgan. Davolash ishi fakulteti sog‘liqni saqlash va aholi salomatligini muhofaza qilish sohalarida oliy ma’lumotli yuqori malakali kadrlar tayyorlash, xodimlarning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish, tibbiy malakali mutaxassislariga ega bo‘lgan tashkilotlar, shu jumladan birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalariga halollik, oshkoralik, talabalarga g‘amxo‘rlik va ta’limda mukammallik kabi asosiy qadriyatlarga sodiqlik orqali rivojlangan xorijiy ta’lim usullari yordamida amalga oshiradi. Biz 6 yillik o‘sinh va o‘zgarishlar natijalarini hisobga olamiz, bu “Davolash ishi” fakultetiga mamlakatda tan olingan, talabalarga e’tibor qaratgan va tibbiyot sohasida o‘z ta’limini boshqaradigan muassasaga aylanish imkonini berdi.

Ushbu strategik reja “Davolash ishi” fakulteti yangi imkoniyatlardan foydalanishi va mamlakat kelajagini rivojlantirishga yordam beradigan yo‘l xaritani taqdim etadi. Maqsadlar va ular bilan bog‘liq strategik vazifalar kelgusi bir necha yil ichida O‘zbekistonga qanday xizmat ko‘rsatishimiz mumkinligini tasvirlash imkonini beradi:

- malakali mutaxassislariga ehtiyoj yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar uchun yetakchi xorijiy tibbiyot oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlari va akademik mobillik dasturlari asosida kadrlar tayyorlash;
- zamonaviy bilim va malakaga ega mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ilg‘or va masofaviy ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish, yuqori malakali professor-o‘qituvchilarni jalb etish, elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- ilmiy-pedagogik salohiyatni rivojlantirish, pedagogik texnologiyalar va o‘qitish uslublarini faol takomillashtirishni qo‘llab-quvvatlash;
- sog‘liqni saqlash, sanitariya-epidemiologiya va aholi salomatligini muhofaza qilish, kasalliklar profilaktikasi, parazitologiya, mikrobiologiya, virusologiya, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish yo‘nalishlarida istiqbolli innovatsion, amaliy va

fundamental tadqiqotlarni olib borish, ularning natijalarini hal etishga yo'naltirish, tibbiy amaliyotda mavjud muammolarni hal etish;

- Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi va tibbiyot kollejariga ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish;
- xorijiy davlatlarning yetakchi tibbiyot tashkilotlari va ilmiy markazlari bilan ta'lim va fan sohalarida uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirish;
- moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalash va mustahkamlash, simulyatsiya markazi, o'quv va ilmiy laboratoriyalarni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash.